

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

URUNOVA SHAXLO RAFIKOVNA

**ROBOTOTEXNIKA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA TERMINOLOGIK LEKSIKANI
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Urunova Shaxlo Rafikovna

Robototexnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikani o'qitish metodikasini takomillashtirish (ingliz tili misolida) 3

Урунова Шахло Рафиковна

Совершенствование методики преподавания терминологической лексики в повышении профессиональной компетентности студентов робототехнического направления (на примере английского языка) 25

Urunova Shakhlo Rafikovna

Improving the methodology of teaching of terminological lexicon in increasing the professional competence of students of the robotics direction (on the example of the English language) 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

URUNOVA SHAXLO RAFIKOVNA

**ROBOTOTEXNIKA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA TERMINOLOGIK LEKSIKANI
O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3663 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xashimova Dildarxan Urinbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Xoliyorov Bunyod Husanovich
pedagogika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "15" oktabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998(69)442-11-67, faks: (+99899-977-88-83, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz / namdchti@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (10 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998(69)442-11-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "2" oktabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "30" sentabr dagi 10 raqamli reestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.A.Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi davrda ijtimoiy soha va sanoat tizimida robototexnika sohasi taraqqiy topib, bu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab yangiliklar va yutuqlarga erishilmoqda. Shu bois robototexnika sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini rivojlantirish davr talabiga aylanmoqda. Ushbu yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda integrativ yondashuv, texnik malakalar, til borasidagi mahorat, professional etika va boshqaruv layoqatini rivojlantirishda ingliz tili fanini o‘qitish va terminologik leksikani o‘rgatish alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan robototexnika yo‘nalishidagi talabalarning lug‘aviy boyligini oshirish bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyatini izohlaydi.

Dunyo amaliyotida robototexnikaga oid turli ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan xalqaro loyihalar Atlas Robotics (AQSh), Lego Technic (Daniya), Lego Mindstorm (Angliya), ECOVACS (Hindiston), Asimo (Yaponiya), ilmiy va amaliy maqsadlarga yo‘naltirilgan “Космические путешествия” (Rossiya) tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik bo‘lib, mamlakatimizdagi robototexnika sohasi mutaxassis kadrlari tomonidan ushbu xorijiy tajribalarni o‘rganish va hamkorlik tadqiqotlarini olib borishi katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda sanoat va iqtisod rivojlangan davrda har sohada, ayniqsa, mashinasozlik va robototexnika yo‘nalishida ham xorijiy tillarni egallagan mutaxassislarga ehtiyoj toboro oshib bormoqda. Prezidentimiz «bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish»¹ kabi muhim vazifalarni ta‘lim tizimida amalga oshirish zarurligini ta‘kidlab o‘tgan. Bunda nafaqat o‘z kasbini, balki kasbiy xorijiy tilni puxta egallagan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va chet tillarini puxta o‘zlashtirgan turli soha mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-5117-sonli Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi “Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli Farmonlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Is‘hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-o-khon-t-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 26.11.2018-y.

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Chet tillarni o'qitish metodikasi va nofilologik yo'nalishlarda chet tilini o'qitish masalari bo'yicha mamlakatimizda J.J.Jalolov, M.T.Iriskulov, D.U.Xoshimova, I.M.To'xtasinov, D.M.Isroilova, V.I. Normuratova, F.B. Saidova, F.Sh.Alimov, X.F.Maxsudova, B.R. Samatova, T.K.Sattarov kabi olimlarning ishlari mavjud².

Nofilologik yo'nalishlarda turli yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borgan olimlardan N.X.Kushiyeva qishloq xo'jaligi ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda klasterli yondashuvlarga asoslangan modulli tizimini yaratish ustida tadqiqot olib borgan³, D.M.Isroilova muhandis talabalarni chet tili kasbiy muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha izlanish olib borgan⁴, V.I. Normuratova yurist talabalarga retseptiv leksik ko'nikmalarni shakllantirishga doir ilmiy ish qilgan bo'lib⁵, ushbu olimlarning tadqiqot ishlari turli soha vakillarini chet tiliga o'qitishda katta ahamiyatga molikdir.

MDH davlatlarida terminologik leksikaning o'ziga xos jihatlari bilan B.S.Budileva, V.M.Leychik, K.B.Urazboyev, G.Xojimatova, E.S.Emilyanova, B.N.Golovin kabi olimlar tadqiqot olib borgan bo'lsalar, nofilologik yo'nalishlarda chet tilda kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha T.S.Makarova, A.K.Krupchenko, N.L.Avgustonovich, K.V.Markaryan, R.P.Milrud, D.L.Matuxin,

² Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi // Chet tili oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik – T: O'qituvchi, 2012. – 431b.; Ирискулов М.Т. ESP тил куникмаларини ривожлантириш усуллари // Филология масалалари илмий – методик журнал, 2017. №4. – Б. 144 -148; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакунов в контексте современного функционирования русского языка и межкультурной взаимодействия. Дисс. ... докт. пед. наук. – Т., 2007. – 209 с.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш: Автореф. пед. фан. докт. (DSc) – Т., 2018. – 66 б.; D.M Isroilova. Muhandis talabalarni chet tili kasbiy muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish (ingliz tili, magistratura). Ped.fan.doktori (DSc). Diss. Avtoref. – Ch., 2023. – 15b.; Нормуратова В.И. Формирование рецептивных лексических навыков у студентов-юристов: Дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 2008. –144 с.; Саидова Ф.Б. Совершенствование управления качеством обучения английскому языку в технических высших образовательных учреждениях: Автореф. ... докт. философии (PhD). – Т., 2017. – 45 с.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед.фан.ф.д(PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2018. – 44 б.; Максудова Х.Ф. Фармацевтика йўналишида инглиз тилини ўқитиш жараёнида талабаларнинг касбий лаёқатларини ривожлантириш-дисс.п.ф.д (PhD) даражаси учун. – Тош., 2021– 186 б.; Саматова Б.Р. Инглиз тили ўқитишда нофилологик йўналиши талабаларининг мотивацияси (юриспруденция мисолида): Пед. фан. (PhD) ... дисс. автореф. – Т., 2020. – 50 с.; Саттаров Т.К. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т., 2003. – 51 б.

³ Kushiyeva N.X. Uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o'qitish modeli. Ped.fan.doktori (DSc). Diss. avtoref. –Т., 2023. – 35 б.

⁴ D.M Isroilova. Muhandis talabalarni chet tili kasbiy muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish (ingliz tili, magistratura). Ped.fan.doktori (DSc). Diss. avtoref. – Ch., 2023. – 15b.

⁵ Нормуратова В.И. Формирование рецептивных лексических навыков у студентов-юристов: Дисс. ... канд. пед. Наук. – Т., 2008. –144 с.;

N.Yu.Gutareva, Yu.V.Lopatina va boshqalar tadqiqot olib borishgan⁶.

Xorijiy mamlakatlarda sohaviy ingliz tilini o'qitish masalalari T.Xatchenson, A.Volters, T.Dudley Evans, X.Bashturkmen, K.Bentley, R.C.Gardner, A.M.Jons, J.Harmer, S.D.Krashen, P. Faber, P.Robinson, D.Marsh va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁷.

Ammo Respublikamizda chet tillarini o'qitishda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yo'nalgan holda o'qitish, xususan, bo'lajak muhandislik ixtisosligining robototexnika yo'nalishi talabalarini ingliz tilidagi leksik terminologik bilimlarini oshirish orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagani e'tiborimizni tortdi va ushbu masalaga jiddiy ehtiyoj borligi sezildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy oliy muhandislik ta'limini takomillashtirishda o'zbek tili va xorijiy tillar ahamiyati" bandi doirasida bajarilishi ko'zda tutilgan.

⁶ Будилева В.С. Признаки терминов как основа их классификации. – М.: Основа, 2002. – 144 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Книжный дом «Либроком», 2009. – 256 с.; Уразбаев К.Б. Терминологическое словосочетание как единица номинации (на материале английской космической терминологии): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 1985. – 25 с.; Ходжиматова Г. Научные основы обучения терминологической лексике русского языка в неязыковом вузе: Дисс... док. пед. наук. – Душанбе, 2011. – 302 с.; Емельянова Е.С. Научные принципы обучения специальной терминологии в высшей школы-Мир языков // Ракурс и перспектива: материалы VI Межунар.науч.прак.конф. – Минск, 2015. – С. 92-98; Голованова Е. И. Введение в когнитивное терминоведение – М.: Флинта: Наука, 2011. – 224 с.; Макарова Т.С. Оптимизация процесса обучения иноязычному профессионально-ориентированному общению специалистов-нефилологов системе дополнительного образования: Дисс. ...канд. пед. наук. – Волгоград, 2003. – 240 с.; Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании: Дисс.... докт пед. наук. – М., 2007. – 460 с.; Августиневич Н.Л. Обучение чтению и переводу текстов по специальности на I-II курсах фармацевтического вуза (на материале английского языка): Дисс. ... канд. пед. наук. – М., 1977. – 205 с.; Маркарян К. В. Обучение иноязычному прагматическому общению студентов неязыкового вуза (английский язык, фармацевтический вуз): Дисс....канд.пед.наук. – Пятигорск, 2007. – 183 с.; Мильруд Р.П. Методика преподавания английского языка. English Teaching Methodology: учеб. пособие для вузов. – М.: Дрофа, 2007. – 253 с.; Матухин Д.Л. Профессионально-ориентированное обучение иностранному языку студентов нелингвистических специальностей. – Томск. Электронный ресурс: <https://www.iyazyki.prosv.ru> (дата обращения: 16.03.2018); Гутарева Н.Ю. Тестирование при определении уровня сформированности иноязычной коммуникативной компетенции (на примере обучения специальности экологический менеджмент в неязыковом вузе): Автореф. дисс. ...канд.пед.наук., – Томск. 2005. – 24 с.; Лопатина Ю.В. Обучение студентов неязыкового вуза профессионально-ориентированному общению на английском языке: Дисс. ... канд.пед.наук. – Ярослав, 2005. – 176 с.

⁷ Hutchinson Tom, Walters Allan. English for specific purposes. – Cambridge University Press, 1993. – 187 p.; Dudley-Evans T, John M. Developments in English for specific purposes. A multi-disciplinary approach. – Cambridge University Press, 1998. – 298 p.; Basturkmen H. Ideas and Options in English for Specific Purposes. – London and New Jersey: ESL and Applied Linguistic Professional Series, 2006. – 199 p.; Bentley K. The TKT Course: CLIL module. – Cambridge: CUP, 2010. – 128 p.; Gardner R.C. Social psychology of second language learning: The role of attitudes and motivation. – Baltimore, MD: Edward Arnold, 1985. – 216 p.; Johns A. M., Dudley-Evans T. English for specific purposes: International in scope, specific in purpose. TESOL Quarterly, 1991. – 457 p; Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London and New York: Longman, 1991. – 386 p.; Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition (English). — Oxford: Pergamon, 1982. – 209 p.; Faber Pamela. Terminological Competence and Enhanced Knowledge Acquisition. // Research in Language 1, 2003. – P. 95-116.; Robinson P. ESP today: A practitioner's guide. – Prentice Hall International (UK) 1991. – 146 p.; Marsh D. Content and Language Integrated Learning (CLIL). A development Trajectory. – Cordoba: University of Cordoba, 2012. – 552 p.

Tadqiqotning maqsadi. Robototexnika yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikani oʻqitish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

robototexnika taʼlimi yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda terminologik leksikaning oʻziga xos xususiyatlari va ahamiyatining tahlili;

talabalarda kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tilida leksik koʻnikmalarini rivojlantirishni taʼminlash asosida robototexnika sohasi terminlarining tipologiyasini tuzish va terminologik minimum tanlashda mezonlar ishlab chiqish;

robototexnika taʼlimi yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tilini oʻrgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish;

robototexnika yoʻnalishi talabalariga koʻnikmalar integratsiyasi yordamida kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tilini va terminologik leksikani oʻrgatish boʻyicha mashqlar tizimini ishlab chiqish;

taklif etilgan texnologiyalar asosida robototexnika taʼlimi yoʻnalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda terminologik leksikaning shakllanganlik darajasini bilish yuzasidan tajriba sinov ishlarini tashkil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida robototexnika yoʻnalishdagi oliy taʼlim muassasalari talabalarining ingliz tilida terminologik leksikani oʻrgatish yordamida kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti robototexnika yoʻnalishdagi oliy taʼlim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini terminologik leksikani oʻrgatish yordamida rivojlantirish mazmuni, shakllari va usullari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (soʻrovlar, suhbat, soʻrovnoma, kuzatish), prognoz (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik-statistik kabi usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarga Word map, Frayer model, Word puzzles, Scavenger hunt, Technical description innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida samarali mashqlar tizimini nutqiy koʻnikmalar integratsiyasi asosida shakllantirish orqali kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tilida sohaga oid maxsus, ilmiy va akadem terminologik leksikani oʻrgatish metodikasi takomillashtirilgan;

talabalarda kasbga yoʻnaltirilgan ingliz tilida leksik koʻnikmani rivojlantirishni taʼminlash asosida robototexnika sohasi terminlarining tipologiyasi semantik, sintaktik, morfologik jihatdan tuzilgan va sohaga oid kasbiy terminologik minimum tanlashda statistik, metodik hamda lingvistik mezonlar ishlab chiqilgan;

talabalarga terminologik leksikani tanishtirish, semantizatsiya qilish, mustahkamlash va kommunikativ nutqda qoʻllash orqali kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan autentik materiallar hamda texnik kontekst boʻyicha terminlarning farqli xususiyatlari qiyosiy tahlil va taqqoslash orqali aniqlashtirilib oʻquv modeli ishlab chiqilgan;

robototexnika sohasiga doir leksika yuzasidan bir komponentli termin, ikki komponentli termin, ot+ot, sifat+ot tuzilishdagi terminologik birikmalar, komponentlari ikkisi ham umum iste'moldagi leksikaga tegishli bo'lgan terminologik birikmalar aniqlashtirilgan va kasbiy vaziyatlarni ifodalovchi maxsus (nutqiy) ko'nikmalar majmuyi hamda til materiallari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

robototexnika yo'nalishi talabalariga kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatish va terminologik leksikani o'rganishga yo'naltirilgan "English for robotics" nomli o'quv qo'llanma va elektron o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikani o'rgatishning dars jarayonidagi bosqichli metodik dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda har bir bosqichda qaysi yondashuvdan foydalanish kerakligi, har bir bosqichda o'qituvchi o'zining amalga oshiradigan vazifalari, talabalar erishishi kutilayotgan natijalar ko'rsatib o'tilgan;

terminologik leksika asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning komponentlari taqdim etilgan;

terminologik leksika asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarinig ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy tillarni innovatsion metodlar asosida o'qitish jarayonida, robototexnika sohasi mutaxassislarida terminologik leksikani o'qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, uning samaradorligini ta'minlovchi o'quv modeli, bosqichli dastur va terminologik minimum tuzilishdagi mezonlar, shuningdek, terminlar tipologiyasi tuzilganligi hamda ingliz tilini o'qitishning kasbga yo'naltirilganlik holati takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati til o'rgatishning innovatsion metodlarga asoslangan samarali usullari, mashq va topshiriqlar tizimi, metodik va didaktik ta'minotidan ishlab chiqarish korxonalariga maqsadli tarzda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda, chet tili o'qituvchilari malakasini oshirish kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda hamda shu soha bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari robototexnika sohasi mutaxassislarida kasbiy kompetentlikni oshirishda terminologik leksikani o'qitishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

talabalarga innovatsion pedagogik texnologiyalar Word map, Frayer model, word puzzles, Scavenger hunt yordamida samarali mashqlar tizimini nutqiy ko'nikmalar integratsiyasi asosida shakllantirish orqali kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida terminologik leksikani o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid tavsiyalar "Robototexnika sohasi uchun ingliz tili (ingliz tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrdagi 388-son buyrug'i asosida berilgan 388-289 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada o'quv dasturining tarkibiy qismlaridan biri – robototexnikaga yo'naltirilgan sohaviy mavzularning xususiyatlarini aniqlashga sharoit yaratilgan;

talabalarda kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida leksik ko'nikmalarni ta'minlash asosida robototexnika sohasi terminlarining tipologiyasi tuzilgan va terminologik minimum tanlashda statistik, metodik va lingvistik mezonlar ishlab chiqishga oid takliflar "STEAM" SUZ 800-14-GR-102 raqamli "Talabalar uchun ingliz tili: fan, texnologiya, muhandislik va matematika" nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Andijon davlat chet tillari institutining 2023- yil 17-martdagi 40/01-216 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, robototexnika ta'lim yo'nalishida terminlar tipologiyasi semantik, sintaktik, morfologik jihatdan tuzilgan va ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyati yaratilgan;

talabalarga terminologik leksikani o'qitish orqali kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan autentik materiallar hamda texnik kontekst bo'yicha terminlarning farqli xususiyati qiyosiy tahlil va taqqoslash orqali aniqlashtirilib, o'quv modelini ishlab chiqishga oid taklif va tavsiyalar Erasmus+ dasturining "O'zbekistonda mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim yo'nalishini zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion g'oyalar asosida modernizatsiya qilish" (609564 2019 1-EL-EPPKA2-CBHE) loyihasi doirasida foydalanilgan (Andijon mashinasozlik institutining 2023-yil 3-martdagi 38-05/1-454 sonli ma'lumotnomasi). Natijada robototexnika ta'lim yo'nalishi talabalarining terminologik leksikani tanishtirish, semantizatsiya qilish, mustahkamlash va kommunikativ nutqda qo'llash orqali kasbiy kompetentligini oshirishga erishilgan;

robototexnika sohasiga doir leksika yuzasidan bir komponentli termin, ikki komponentli termin, ot+ot tuzilishdagi birikmalar, sifat+ot tuzilishdagi birikmalar, komponentlari ikkisi ham umum iste'moldagi leksikaga tegishli bo'lgan terminologik birikmalar aniqlashtirilgan va kasbiy vaziyatlarni ifodalovchi maxsus (nutqiy) ko'nikmalar majmuyi hamda til materiallaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM-"Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz", "O'zbekiston yoshlari" nomli eshittirishlar ssenariysini tayyorlasda foydalanilgan ("O'zbekiston" teleradiokanali 2023-yil 19-sentabrdagi O'z/k-04-36-1412-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarga terminologik leksikani o'qitishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar hamda robototexnika ta'limi yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda terminologik leksikaning o'rni va ahamiyati kabi ma'lumotlar ommalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 8 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, 1 ta o'quv qo'llanma va 1 ta elektron o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan DGU 19781-sonli guvohnoma) chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 177 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalar asosida tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilidagi terminologik leksikani o'qitishning ilmiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, terminologik leksikani o'zlashtirishda psixolingivistik omillar va qiyinchiliklar, shuningdek, terminologik minimum tuzishda mezonlar va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Termin ma'lum vaziyatlarda o'zining informativ, bir ma'nolilik, aniqlilik va tabiiylik kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi, aniq bir bilim sohasiga tegishli bo'lishi va boshqa so'zlardan o'zining o'zgarmas, aniq, qisqa va lo'nda, shuningdek, kontekstda mustaqil ma'noga ega bo'lishi va stilistik neytrallik xosligi nazariy asoslandi.

Termin – (lot. terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi⁸. A.N.Tixonov va L.L.Kim termin so'ziga shunday ta'rif berganlar: “Termin – ishlab chiqarish, ilmfan, texnika va san'at sohalaridagi biror bir maxsus tushunchani ifodalaydigan so'zlar va so'z birikmalaridir”⁹. Sh.N.Abdullayeva o'zining “Tilshunoslikda terminologiya masalalariga oid qarashlar” deb nomlangan maqolasida “termin o'z lingvistik tabiatiga ko'ra, adabiy til lug'aviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, boshqa toifadagi so'zlardan ilmiy, texnikaviy yoxud boshqa kasbiy tushunchalarni aniq, ixcham ifodalashi va axborotga boyligi bilan ajralib turadi”¹⁰ deb aytib o'tadi.

⁸ Qomus.info.onlayn ensiklopediya- <https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/robsoxasi/ot/uz/>

⁹ Тихонов А.Н., Ким Л.Л. Современный русский язык. Лексикалогия: Монография – Тошкент: “O'qituvchi”, 1991. – 207 с.

¹⁰ Abdullaeva Sh.N.Tilshunoslikda terminologiya masalalariga oid qarashlar. – N: NamDu ilmiy xabarnomasi, 2019. – № 5 – B. 32-34.

Terminlar oddiy leksik birliklardan farq qiladi. B.Morina va B.Dimitro o'zining "The structural and semantic features of computer terms in English" mavzusidagi maqolasida M.P.Kocherxan terminlarning xususiyatlari haqidagi nazariyalarini tahlil qilib, terminlarning quyidagi jihatlarini ko'rsatib o'tishadi:

1.Tizimlilik xususiyati (har bir termin ma'lum bir tizimga mansub bo'lib va o'z ma'nosiga shu tizimda ega bo'ladi).

2.O'z ta'rifiga ega bo'lishi (Terminlar to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ta'riflanadi).

3.Monosemantik so'zlar, ya'ni bir ma'noli so'zlar guruhiga mansubligi (o'zining semantik maydonida terminlar faqat bir ma'noga ega bo'lishi).

4.Iboralar yo'qligi.

5.Stilistik neytrallik xosligi¹¹.

Tilshunos R.Dubuk, "terminlar nafaqat aniq va mukammal bo'libgina qolmasdan, ular mohiyatni aniq aks ettirib keladi va noma'lum ma'no yoki ko'chma ma'no berishdan qochadi" deya terminlarning o'ziga xos xususiyatini berib o'tadi¹². Ta'riflardan ko'rinadiki, terminlar – ma'lum soxa vakillari va mutaxassislar tomonidan qabul qilingan ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika va san'at sohalaridagi biror bir maxsus tushunchani ifodalaydigan rasmiylashtirilgan so'zlardir deb ayta olamiz.

Juda ko'p olimlar ishlarida kasbiy kompetentlik masalalari yoritilgan. Xususan, V.N.Vedenskiy, I.S.Gavrilova, A.M.Mityaeva, S.A.Tatyanenko va boshqalar ishida kasbiy kompetentlikning sifat, daraja, soha kabi tushunchalari yoritilgan¹³. T.I.Shamova fikriga ko'ra, "kasbiy kompetentlik" – bu kasbiy bilimga va ishlash qobiliyatiga ega bo'lishdir¹⁴. K.Geytxaus kasbiy-sohaviy muvaffaqiyatga erishish uchun muloqot yuritishda quyidagi layoqatlar mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

- sohaga oid maxsus leksikani bilish,

- sohaga oid ilmiy, akadem bilimlarga ega bo'lish (ilmiy izlanishlar olib borish va memorandumlarda qatnashish),

- har kungi kundalik muloqot olib borish layoqatiga ega bo'lish¹⁵.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mutaxassisning kasbiy va kommunikativ kompetentligi oshishida terminologik leksikani bilishi, ya'ni sohaga tegishli bo'lgan terminologik so'z va so'z birikmalarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, deb ayta olamiz.

¹¹ Moriana B, Dimitriy B. The structural and semantic features of computer terms in English.// Cognitive Studies | Études cognitives, 2020. – №20 – P.22-26.

¹² Dubuc, R. Terminology: A practical approach – Canada: National Library, 1997. – P. 38–39

¹³ Татьянченко С.А. Формирование профессиональной компетентности будущего инженера в процессе обучения математике в техническом вузе: дис. ... канд. пед. Наук. – Тобольск, 2003. – 240 с.; Гаврилова И.С. Качество системы профессионального образования в условиях компетентного подхода. Профессиональное обучение: от теории к практике: коллективная монография. – Орел: Изд-во Орел, ООО ПФ «Картуш», 2016. – С.38-52.; Введенский В.Н. Профессиональная компетентность педагога: пособие для учителя. – СПб.: Просвещение, 2004. – 159 с.

¹⁴ Шамова, Т.И. Основы технологии модульного обучения / Т.И. Шамова, Л.М. Перминова // Химия в школе. – 1995. – № 2. - С. 12-18

¹⁵ Gatehouse K. Key issues in English for Specific Purposes (ESP) curriculum development. // The internet TESL Journal – № 7(10), 2001. – P.1-7.

Terminlarni o'qitishda talabalarning yoshidagi va qobiliyatlaridagi farqlar, shaxsiy temperamenti turli xilligi, turli motivatsiyaga ega bo'lishi, retseptiv va reproduktiv nutqiy qobiliyatlarning turlichaligi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlari va har bir talabaning chet tilini o'zlashtirishdagi turli uslubi, shuningdek, turli strategiyalarini qo'llashi kasbiy chet tili darslarida terminologik leksikani o'rgatish jarayoniga ta'sir qiluvchi psixolingvistik omillar hisoblanadi.

Psixolingvistikaning kommunikativ tamoyillari va xorijiy tildagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish masalasining psixologik komponentlari psixolingvist olimlar P.Ya.Galperin, V.V.Davidova, L.V.Zankova, A.N.Leontev, D.B.Elkonin, V.V.Vigotskiy, N.I.Jinkin va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, jarayonning lingvodidaktik jihatlari N.D.Galskova, D.I.Gez, I.L.Bim, A.N. Shukin kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Terminlarni o'rganishda ham 4 xil psixologik harakat kuzatiladi, ya'ni terminlar tinglash, ko'rish orqali miyaga qabul qilinib, ular so'ngra talafuz qilinadi, hamda og'zaki va yozma nutqda o'zlashtiriladi. Talabalar terminlarni o'z sohalariga tegishli chet tilidagi matnlarni o'qish va tinglash jarayonida ularni passiv lug'at shaklida ongda qabul qilib, retseptiv nutqda ularni o'zlashtiradi va bu terminlarning grammatik normalari va semantik ma'nolarini anglagan holda ko'p marotaba og'zaki nutqda va yozma nutqda to'g'ri va erkin qo'llashi natijasida ular aktiv lug'at fondiga aylanadi hamda bu jarayon reproduktiv nutqda shakllanadi.

Chet tili o'rganishda muhim psixologik omil hisoblangan motivatsiyaga doir ko'plab masalalar bilan L.V.Leontev, V.V.Davidova, Ye.P.Ilin, P.Ya.Galperin, V.V.Vigotskiy, Jinkin N.I., Stiven Krashen va boshqalar shug'ullanishgan.

Ye.P.Ilin motivatsiyaning ta'lim jarayonida o'rni beqiyosligi, ma'lumot o'zlashtirish va ko'nikma, malakalarni shakllantirishda ahamiyati kattaligini ta'kidlab o'tgan¹⁶. Ye.V.Sidorenko aytadiki, "inson xatti-harakatini yo'naltirib va jonlantirib turuvchi omillar majmuasi, aniq bir insonning motivlar tizimi, boshqa insonning motivlarini yuzaga chiqaruvchi harakatlar tizimi" deb ta'rif beradi¹⁷.

Nofilologik yo'nalishdagi talabalarga ingliz tili o'qitishda motivatsiya masalasi turli o'zbek olimlari ishlarida ham tadqiq qilingan, xususan, T.K.Sattarov, V.I.Normurodova, B.R.Samatova, G.S.Sabirova, F.Sh.Alimov va boshqalar o'z ishlarida motivatsiya va uning chet til o'qitishdagi o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan

B.R.Samatova o'z tadqiqot ishida "motivatsiya – insonlarning biror bir ish harakatni bajarishga ta'sir qiluvchi dinamik hodisa", deya izoh beradi¹⁸.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, motivatsiya biror faoliyatni bajarishga istak, xohish va ehtiyoji deb ayta olamiz. Chunki ehtiyoj va istak faoliyatni bajarishga undovchi psixologik faktorlar hisoblanadi.

N.I. Gez, M.V.Lyaxovskiy va A.A.Mirol'yubov chet tili o'qitishda ixtiyorsiz yod olish katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tishadi¹⁹. Ushbu olimlar "ixtiyoriy so'zlarni yod olish ularni nutqdagi ishtirokini samarali ta'minlamaydi,

¹⁶ Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2002. – 17 с.


¹⁷ Сидоренко Е.В. Мотивационный тренинг. – М.: Речь, 2005. – С. 23-24.

¹⁸ Саматова Б.Р. Инглиз тили ўқитишда нофилологик йўналиши талабаларининг мотивацияси (юриспруденция мисолида): Пед. фан. (PhD) ...дисс. автореф. – Т., 2020. – 8 б.

¹⁹ Н.И.Гез, А.А.Миролюбов,М.В.Ляховицкий и д.р Методика обучения иностранным языкам в средней школе-учебник М:Высш.школа, 1982 – С. 34-35.

balki tildagi leksik birliklarni leksik va nitqiy mashqlar yordamida nutqda va kontekstda foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish kerak” deb hisoblaydilar,²⁰.

Robototexnika yo‘nalishidagi talabalarga tajriba-sinov tadqiqot ishlarini olib borishda shuni aniqladikki, terminlarni nutqda qo‘llashda motivatsion, analiz va sintez, nazorat va ijro kabi bosqichlar kuzatiladi.



1-rasm. Terminlarning og‘zaki nutqda qo‘llash bosqichlari

Terminologik minimum tanlashda statistik, lingvistik va metodik mezonlar ajratildi va ushbu mezonlar ma‘lum yo‘nalishda taxsil olayotgan talabalar uchun qancha miqdorda sohaviy terminlar bilan tanishtirish, ularning yosh va qiziqish kabi psixologik xususiyatlarni inobatga olib qanday turdagi terminlarni tanlash, shuningdek lingvistik bilimlari bilan mos kelish darajalarini aniqlab to‘gri terminlarini o‘rgatishimizda asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Nofilologik oliy ta‘lim muassasalarining robototexnika ta‘lim yo‘nalishi talabalariga terminologik minimumni o‘qitishning mazmuni va tuzilishi”** masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu bobda terminlarning tasniflash xususiyatlari asosida terminlar tipologiyasi tuzildi, kasbiy kompetentlikni oshirishda terminologik leksikani o‘qitishning modeli tuzildi, shuningdek, terminologik leksik ko‘nikmalar xosil qilishning bosqichli dasturi ishlab chiqildi va terminlarni o‘rgatishda 4 bosqichga mos mashqlar tizimi tuzildi va interfaol texnologiyalar takomillashtirildi.

Terminlar xam tildagi umum iste‘moldagi so‘zlar kabi 3 xil usul bilan yasaladi: semantik, sintaktik va morfologik²¹.

Ma‘lumki, robototexnika sohasidagi terminlarni talabalarga turlarga ajratib o‘rgatish ularda leksik va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda samarali usul bo‘lgani bois talabalar sohaviy terminlarning turlarini o‘zlashtirganlarida ularda terminlarni morfologik, sintaktik va semantik usullardan foydalanib nutqda ishlatish ko‘nikmasi shakllanadi. Robototexnika sohasidagi terminlarni tasniflashda umumiy leksikani tasniflash qoidalarini hisobga olgan holda, ularni ham morfologik, semantik va sintaktik uslublari jixatidan turlarga ajratamiz.

Quyidagi jadvalga ko‘ra robototexnika sohasidagi terminlarni morfologik tuzilishi jihatidan xam 3 turga tasnif qilganmiz:

²⁰ Н.И.Гез, А.А.Миролюбов,М.В.Ляховицкий и др Методика обучения иностранным языкам в средней школе: учебник – М:Вышш.школа, 1982. – С. 34-35с

²¹ Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 46 с.

Robototexnika sohasidagi terminlarni morfologik tasnifi

№	Robototexnika sohasi termin turlari	Ma'lumot	Misollar
1	Tub termin	Faqat bitta o'zakdan iborat bo'ladi	<i>android, device, wrist, arm, monitor, baud, joint, drift, load, azimuth, backlash, droop, pan, pitch, roll, twist, pixel</i>
2	Yasama termin		
	a) prefiks bilan yasalgan	Old qo'shimchalar o'zakka qo'shiladi.	auto-: automation, automobile, automotive Inter-: interfaces, interlock, interpreter. Re-: resolver, recharge, Micro-: microprocessor, microcomputer, Multi-: multiprocessor, multifunctional Fore-: forearm, foreground Un-: unlock, unroll
	b) suffikslar bilan yasalgan	So'z oxiriga qo'shimchalar qo'shiladi.	-or: actuator, manipulator, annunciator, sensor, editor, processor, conductor -er: controller, compiler, assembler, gripper, amplifier -ion: communication illumination, activation, manipulation, automation, extension, induction, instruction, motion, friction. -y, -ty: capacity, activity, accuracy, rigidity, linearity, repeatability, -able: programmable, rechargeable, adaptable. -al: digital, distal, cylindrical, mechanical. -ive: conductive, derivative, adhesive.
	d) konversiya bilan yasalgan	bir terminning bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumiga o'tishi bilan hosil bo'ladi.	-access(фeъл)-access (om), control (фeъл)-control (om), display (фeъл)-display (om).
	Word blending usuli bilan yasalgan	turli xil ma'nolarga ega bo'lgan ikkita alohida so'zning ma'lum bir morfemalari birlashtirish orqali	<i>backlash, electrocute, infotech, hi-tech</i>
3	Terminologik birikmalar	Bir necha so'z komponentlaridan iborat bo'ladi	<i>computer control, contact sensor, object program, long-distance sensor, robot arm, controller unit, teach programming, sensor feedback.</i>

Robototexnika sohasidagi terminologik birikmalarni tuzilishi jixatidan quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1) Ikkala komponenti ham maxsus terminologik leksikaga taaluqli bo'lgan terminologik birikmalar, bularga *hydraulic motor, diaphragm amplifiers, pneumatic actuator, servo-controlled motors, solenoid valve, battery power, lead-acid batteries, spur gear* kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

2) faqat bitta komponenti texnik termin hisoblangan terminologik birikmalar. Bular ham ikkiga bo'linadi:

a) ot+ot tuzilishdagi birikmalar- *computer control, contact sensor, object program, long-distance sensor, robot arm, controller unit, teach programming, sensor feedback*.

b) sifat+ot tuzilishdagi birikmalar-*adaptive control, conductive rubber, manual control, fixed coordinate system, industrial robot, humanoid robot, linear array camera, programmable manipulator, mobile robot, smart sensor* kabilarni misol qilamiz.

3) komponentlari ikkisi ham umum iste'moldagi leksikaga tegishli bo'lgan terminologik birikmalar. Bularga *access time, dead zone, fail safe, job shop, joint space, load deflection, pattern recognition, steady state, monotonous motion, static error, artificial intelligence* kabilar misol bo'ladi.

Robototexnikada terminologik birikmalarning turli tarzda ifodalanishiga qarab ham turlarga bo'lamiz:

1) komponentlari orasidagi semantik ma'no bitishuv usuli bilan ifodalanadigan terminologik birikmalar, bularga *analog control, background processing, chain drive, data base, digital control, error signal, load capacity, limit switch* kabilar misol bo'la oladi;

2) komponentlari grammatik jihatdan predloglar yoki qo'shimchalar orqali birikkan terminologik birikmalar, bularga *analog – to-digital converter, degree of freedom, centre of gravity*.

Semantik xususiyatiga ko'ra robototexnika sohasi terminlarini quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

2-jadval


Robototexnika sohasi terminlarning semantik tasnifi

№	Terminlarning semantik tasnifi	Misollar
1	Robot turlarini ifodolovchi terminlar	<i>industrial robot, space robot, intelligent robot</i>
2	Ishlab chiqarish tizimini ifodolovchi terminlar	<i>batch production, computer aided manufacture, numerical control</i>
3	Robotning qattiq qurilma qismlarini ifodolovchi terminlar	<i>arm, elbow, hydraulic motor, cable drive</i>
4	Robotning ishlash jarayonini ifodolovchi terminlar	<i>calibration, fail safe, load</i>
5	Robotni boshqaruv tizimi bilan bog'liq terminlar	<i>digital control, multiprocessor control</i>
6	Sensor tizimi terminlari	<i>CID camera, matrix array camera, smart sensor</i>
7	Kompyuterlashtirish tizimi terminlari	<i>host computer, memory, multiplexer</i>
8	Dasturlash (Software) tizimi terminlari	<i>access time, data base, default value</i>

9	Boshqaruv qurilmasini ifodalovchi terminlar	<i>liquid crystal display, annunciator, storage tube</i>
10	Muloqot tizimi bilan bog'liq terminlar	<i>digital communications, baud, full duplex, echo check, acoustic coupler</i>

Biz kasbga yo'naltirilgan ingliz tilida terminlarni o'qitishni hozirda chet tili o'qitishda keng qo'llanilayotgan integratsiyalashgan ko'nikmalar yondashuvi (Integrated skills approach) va kommunikativ yondashuv (Communicative approach) tamoyillariga asoslanib olib bordik va bu yondashuv terminlarni talabalaraga o'rgatish va ularni kommunikativ muloqotda ishlata olish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarda kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan ingliz tilida terminologik kompetentlikni rivojlantirishning metodik tuzilmasi aks etgan modeli tuzildi va quyida ushbu model bilan tanishib o'tamiz (2-rasm):



2-rasm. Terminologik leksik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan o'quv modeli

Terminologik va kasbiy kompetentlikni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: a) kirish, b) semantizatsiya qilish, c) mustahkamlash, d) nutqda faollashtirish.

Biz quyidagi jadvalda terminologik leksik kompetentlikni rivojlantirish bosqichlarining har birining maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalari xususida tizimli dastur ishlab chiqdik. (3-jadval)

3-jadval

Terminologik leksik kompetentlikni rivojlantirish dasturi

Bosqich	Maqsad	Yondashuvlar	Vazifalar	Natija
1-bosqich (kirish)	Terminologik birliklar bilan talabalarni tanishtirish	Content based learning	Terminologik leksikani tanish, terminlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratishdir, mutaxassislik bo'yicha matnlarni diqqat bilan tanlash	Talabalar terminlarni ajrata oladilar, matn bilan tanishadilar,
2-bosqich (semantizatsiya)	semantik terminologik paradigmalarini o'zlashtirishdir	Content based learning	matndagi terminologik birikmalarni aniqlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni umumiy leksikadan farqlash, terminologik leksikani tarkibiy qismlarini mustaqil ravishda ochib berish, terminlarning semantik ma'nolarini o'rganish, ularning morfologik, semantik va sintaktik tuzilishi bilan tanishish; kontekstda atamaning ishlash qonunlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantirish	Talabalar terminlarning semantik ma'nolarini anglab tushunadilar, terminlarning tuzulish xususiyatlarini o'rganadilar, kontekstda qanday ma'noda ishlatishini o'rganadilar
3-bosqich (mustahkamlash)	Talabalarda terminologik kompetentlikni rivojlantirish	Content based learning, task based learning	terminologik birliklarni gaplarda qo'llay olish, sintaktik konstruksiyalarga asoslangan terminologik birikmalarni taqdim etish; matnlarda atamaning vazifalari bilan tanishtirish, terminlarni o'qish va tinglash orqali passiv lug'at sifatida qabul qilib, gapirish va yozish ko'nikmasida aktiv lug'atga aylantirish uchun mustahkamlovchi mashqlarni qo'llash kabi vazifalar kiradi	Talabalar terminlarni sintaktik jihatdan gaplarda qo'llay oladilar, terminlarni tinglab tushuna olish, to'g'ri talafuz qila olish ko'nikmalariga ega bo'ladilar
4-bosqich (nutqda faollashtirish)	Kommunikativ-kasbiy kompetentlikni shakllantirish	Communicative approach	Ushbu bosqichning vazifalari: nutqda yuqori darajada ixtisoslashgan terminologik birliklardan foydalanish ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish; ularni og'zaki va yozma nutqda erkin ishlata olish malakasini rivojlantirish, kasbiy monolog bayonotlari (taqdimot, yo'riqnomalar) yarata olish ko'nikmalarini shakllantirish	Talabalar ushbu bosqichda og'zaki va yozma nutqda terminlarni ishlatgan xolda kasbiy muloqot olib bora olish, kasbiy monolog bayonotlari (taqdimot, yo'riqnomalar) yarata olish ko'nikmalari shakllanadi.

Terminlarni o'rgatishning birinchi va ikkinchi bosqichlarida, ya'ni kirish va semantizatsiya qilish bosqichlarida **Word map, Frayer model, word puzzles, Scavenger hunt, Semantik tahlil qilish** kabi texnologiyalaridan foydalanish talabaga terminlarni mohiyatini aniq tushunib yetishlarida yaxshi yordam beradi. Terminlarni o'zlashtirishni mustahkamlash bosqichlarida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda **“information gathering, headings, jigsaw reading, mysterious text,”** kabi texnologiyalarni qo'llash mumkin. Bu texnologiyalar autentik matn bilan ishlashda, terminlarni yaxshiroq tanib o'zlashtirishlari va esda saqlab qolishlarida katta yordam beradi. Terminlarni tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda **“information transfer, compare and contrast, B.B.B”** texnologiyalarini qo'llash ularda terminlarni tinglaganda ma'nosini anglab yetish qobiliyatlari o'stiriladi. Og'zaki nutqni ostirishda **“reporting, interview, word scramble, what disappeared, matching, flash card”** texnologiyalari ma'lum kontent doirasida muloqot qilish ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi. Bu texnologiyalar talabani mustaqil izlanib biror texnik jixoz haqida ma'lumot to'plab, u haqida bayonot qila olish ko'nikmasini shakllantiradi. Yozish ko'nikmalarini o'stirishda **“Writing correction code, how does it work, technical description”** texnologiyalari talabalarida terminlarni orfografik to'g'ri yozish, biror texnik uskunani tasvirlash, ishlash qo'llanmalarini yozish kabi kompetensiyalar rivojlantiradi. You tube saytidan robotlar haqida video ko'rsatilib, talabalar ushbu videoda berilgan terminlar va leksik birliklarni o'rganadilar. Bu texnologiyada talabalar videodagi o'ziga notanish kasbiy terminlarni yozib oladilar va ushbu terminologik leksik birliklarning ta'riflarini, misollarini va videodagi ishtirok etgan gaplarni yozib oladilar, har bir guruh o'z videolarida keltirilgan yangi terminlarning ma'nolari va misollarini sherik guruhlar bilan baham ko'radilar.

Yuqorida biz taklif qilgan va keltirilgan texnologiyalar hamda strategiyalar robototexnika yo'nalishi talabalariga terminologik leksikani o'rgatish va shu asosda ularda kasbiy kompetentlikni oshirishga, kelajakda kasbiy muloqotlar va bayonotlar olib borish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi deb ayta olamiz.

